

TALABALARDA POZITIV DUNYOQARASHNI SHAKLLANTIRISH ORQALI IJTIMOIY MOSLASHUV MUAMMOLARINING O'RGANILISH AHAMIYATI

Sh.E. Yakubova

UrDU mustaqil tadqiqotchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13121454>

Annotatsiya. Ushbu maqolada talabalarda pozitiv dunyoqarashni shakllantirishda sharq allomalarining pedagogik ta'limotlari vositasida ijtimoiy muammolarni o'rganish, talabalarda adattatsiya tushunchasini ta'lim jarayonida shakllantirish orqali jamiyatga integratsiya qilish g'oyalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: pozitiv, ijtimoiy, adaptatsiya, globallashuv, qadriyat, odillik, dunyoqarash, nekbinlik, yaxshilik, shaxs, ijtimoiylashuv.

Аннотация

В данной статье освещены идеи изучения социальных проблем формирования позитивного мировоззрения у студентов с помощью педагогических учений восточных ученых, а также идеи интеграции студентов в общество путем формирования концепции адаптации в образовательном процессе.

Ключевые слова: позитив, социальный, адаптация, глобализация, ценность, справедливость, мировоззрение, оптимизм, добро, личность, социализация.

Annotation

This article highlights the ideas of studying social problems of forming a positive worldview in students with the help of pedagogical teachings of Eastern scholars, as well as the ideas of integrating students into society by forming the concept of adaptation in the educational process.

Key words: positive, social, adaptation, globalization, value, justice, peace, optimism, good, happiness, socialization.

Kirish. Jahonda yuz berayotgan globallashuv sharoitida umuminsoniy va milliy qadriyatlarni e'zozlash, mavjud qadriyat va qonun-qoidalarga, tevarak atrofdagi ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy voqea hodisalarga nisbatan yoshlarda munosabatlarni to'g'ri yo'lga qo'yishda, munosabatlarda ijobiylik ruhida bo'lishga chaqirish, yoshlar jamiyatdagi belgilangan axloqiy, madaniy-ma'rifiy, ma'naviy jarayonlarda va bu jarayonlarning ishtirokchisi sifatida qatnashish chog'ida ijobiy psixologik – pedagogik dunyoqarashda va munosabatda bo'lish yoshlar dunyoqarashini kengaytirishga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. Bugungi kunda talaba yoshlarning ruhiyatida tetiklik, ijtimoiy faoliyatida mazmunlilik, kelajakka intilish, shaxslararo munosabatlarda dilkashlik va muloqotchanlik, jamoada tashabbuskor, lider, bilim o'rganishga intilish, tinglashda sabr-toqatlilik kabi sifatlarning shakllangan bo'lishi va shu asosda talaba-yoshlar jamiyatga mostlashib qadam qo'yishi, o'z o'rni va mavqeiga ega bo'lishi, shuningdek, yuqorida aytilgan sifat va fazilatlariga egalik qilishi albatda ta'lim va tarbiyaga borib taqaladi. Ta'lim va tarbiyaning dastlabki o'chog'i oila hisoblansada, lekin bu sifatlarning barchasini shakllantirishda oila doimo ustuvorlik qilishi qiyin.

Asosiy qism. Talaba – yoshlar o'z individual hususiyatlaridan kelib chiqib, ya'ni temperament, xarakter, qobiliyatlarining belgilari talabada pozitivlikning shakllanishida yuqori yoki past darajani ko'rsatishi mumkin. Shuning uchun ham bugungi kunda talabalarda pozitiv dunyoqarashni shakllantirish pedagogik muammo hisoblanadi. Uning individualligiga ta'sir qilishni boshqarish esa ta'lim jarayoniga borib taqaladi. Negaki biz talabalikka kelgunga qadar yoshlar egallagan yaxshi sifatlarini boyitish, salbiy illatlarini yo'qatish orqali pozitivlik

dunyoqarashini uning ruhiyatiga ta'lim-tarbiya orqali singdirish va bunda asosan Sharq allomalarimizning ta'limotlariga tayangan holda tashkil qilish samarali va natijali deb bildik. Shundan kelib chiqqan holda Sharq allomalarining ta'limotlarini, ularning g'oya va fikrlarini, qarashlarini vosita qilib talabalarda butun hayotida davomida ijobiy fikrlilik, hurramlilik, hushkayfiyatlilik, intizomlilik, talabchanlik, kuzatuvchanlik, faollik asosida tevarak-atrofdagilarga nisbatan saxiy, mehribon, hilimli, kechirimli, mas'uliyatli, vadasiga vafodor, samimiy, oliyhimmatli, muhabbatli, irodali bo'lish kabi pozitiv dunyoqarashini shakllantirish lozimligini muammo sifatida yoritdik.

Kelajak avlodda pozitiv dunyoqarashni shakllantirish har bir davrning olimlari tomonidan pedagogik muammo sifatida o'ziga hos tarzda o'rganilgan bo'lib, Sharq allomalarining ta'limotlari vositasida talaba-yoshlarda nekbinlik tuyg'ularini shakllantirish, ilmiy dunyoqarashni tarkib toptirish masalalari tadqiqot obyekti sifatida keng talqin qilinmagan va bu bugungi kunda atroflicha o'rganishni ilmiy tadqiqot ishlarini chuqur tahlil qilgan holda olib borishni taqozo qiladi.

O'zbek xalqining ko'p asrlik ma'naviy-madaniy boyliklari insoniyatni ezgulikka yetaklashga xizmat qilmoqda. Chunki ular nekbinlik falsafasiga asoslangan bo'lib, har bir shaxsni yaxshi, el-yurt uchun foydali bo'lgan amallarni bajarishga da'vat etadi. Ularda ajdodlarimizning ijobiy xulq-atvor tajribasi o'z ifodasini topgan. Ijobiy xulq-atvor esa pozitiv dunyoqarashga asoslangan bo'lib, atrofdegilarni ma'naviy yetuklik sari undashda katta ahamiyat kasb etadi. Mutafakkir ajdodlarimizning merosi avlodlarning dunyoqarashini boyitib, ezgulik sari harakat qilishga undab kelmoqda. Natijada ko'p asrlar mobaynida yosh avlod dunyoqarashida butun olamga atrofdegilarga yaxshilik qilish kayfiyati ustuvor bo'lmoqda. Ijobiy fikrlashning mohiyati talaba hayotining istalgan daqiqasida quvonch uchun sabab topa olish va muvaffaqiyatsizliklarni oqilona idrok etish, sabablarni tahlil qilish va ularni qimmatli tajriba sifatida qabul qilish qobiliyatini tarkib toptirishdir.

“Pozitiv dunyoqarash” fenomeni - insoning odam va olam, ularning xatti-harakatlari, atrof-muhit haqidagi ijobiy qarashlar majmuini kiritishimiz mumkin. Inson dunyoqarashi uning butun hayoti davomida shakllanadi. Bunda uzluksiz ta'lim jarayoni muhim hisoblanadi.

Talabalarda pozitiv dunyoqarashni shakllantirishning ijtimoiy muammosi bu insonning ijtimoiy voqealikka munosabati ya'ni uning jamiyat va jamiyatdagi qonun-qoida, qadriyat, urf-odat, an'analarga munosabati, insonlar bilan muloqotida o'zaro aloqa o'rnatish, tushunish, anglash va jamiyatga ijtimoiylashishdagi qiyinchiliklar deb qaralsa, pedagogik tomonlama muammosi esa aynan ijtimoiylashuv jarayonida talabaga kerak bo'ladigan ta'lim va tarbiya jarayonini amalga oshirishdagi mehnatni ko'ra olmasligi, qadrlamasligi, ilm olishga zarurat sezmasligi, uquvning pasayishi, o'qish va o'rganishdagi dangasalik deb ko'rsatishimiz mumkin. Aynan manashu belgilarni yo'qatishda biz allomalarimizning durdona so'zlari to'plangan, o'qiganda ta'sirlantiradigan asarlariga murojaat qilamiz. Albatda asarlarning tahlilini yetkazib berishda, tushuntirishda ta'lim va tarbiya jarayonida pedagogning mahorati va taktikasi ahamiyatlidir.

Muhokama. Talabalarda o'zbek xalqining madaniy va ma'naviy merosiga aylangan falsafiy, ijtimoiy-siyosiy hamda axloqiy g'oyalarni singdirish natijasida pozitiv dunyoqarash paydo bo'ladi.

Shaxsning ijtimoiy tajribasi pozitiv dunyoqarashi madaniy-axloqiy g'oyalar va qarashlar asosida mujassam holda rivojlanadi. Ijtimoiylashuv jarayonida albatda ijobiylik qarashlar yuzaga keladi. Negaki ijtimoiylashish bevosita qabul qilish, mostlashish, tarkib toptirish tushunchalari bilan birga turadi. Talabalarda ijobiy dunyoqarashni rivojlantirish uchun madaniy-tarixiy

sharqona merosni o'rgatish muhimdir. Zero, pozitiv dunyoqarash ijobiy madaniy, ma'naviy munosabat mahsuli sanaladi.

Bugungi davr yoshlari idrok etayotgan, o'rganayotgan g'oyalar, qarashlar va fikrlarga nisbatan ijobiy xulosa chiqarish tajribasini o'rgatish muhimdir. Negaki o'rgansa-yu amal qilmasa, to'g'ri xulosa chiqarmasa, u holda uning harakatlarida pozitivlikga asoslangan fikrni ko'rmasligimiz mumkin. Sharq allomalarining tarixiy-madaniy merosini o'rganish talabalarimizning pozitiv dunyoqarashini yanada oshishiga ko'maklashadi. Tarixni o'rganish, allomalarimizning o'zlarining shaxsiy hayotlarini, yashash tarzini, ilmi bo'lish va unga undash tamoyillarini kuzatishda ham har qanday anglagan insonda ularning yashagan dunyosiga nisbatan ijobiylik hissi paydo bo'ladi. Talabalar merosni o'rganish uchun ham ularda izlanish va harakat qilish ko'nikmasi lozim. Demak, tarixiy-madaniy merosga oid bilimlarning o'zlashtirilishi ham bugungi davr yoshlarida pozitiv dunyoqarashni shakllanishiga yordam beradi. Ta'kidlangan tarixiy-madaniy bilimlar har tomonlama tekshirilgan bo'lsa pozitiv dunyoqarash shu yerda mavjud bo'ladi. Natijada ular inson va jamiyat munosabatalarini aniq idrok etadilar. Pozitiv dunyoqarashni shakllanishi natijasida talaba shaxsining imkoniyatlari ochiladi.

Ijobiy dunyoqarashga ega bo'lgan talaba pedagogik jarayonda bir qator vazifalarni bajarishi lozim bo'ladi:

- O'ziga kerak bo'lgan ma'lumotlarni va axborotlarni topish;
- O'qib o'rganish jarayonida turli bilimlar va axborotlardan o'z o'rnida samarali foydalanish;
- O'qib o'rganganlariga amal qilish;
- Boshqalarga ham bilimni uzatish;
- Ustozlari bilan to'g'ri muloqotni yo'lga qo'yish;
- Bilim olish jarayonida o'z shaxsini va boshqalarning shaxsini hurmat qilish;
- Doimo intiluvchan ruhiyatda bo'lish kabi sifatlarda o'ziga hos vazifalarni bajara oladi.

Ijodiy va ilmiy faoliyatni muntazam ravishda amalga oshirish natijasida o'quvchilarda yuqori hissiy-emotsional ko'tarinlikka asoslangan nekinlik tushunchasini shakllantirishga erishadilar. Ilm egallash jarayonida toliblar ilm egallash va uni ezgulik yo'lida sarflashga asoslangan dunyoqarashga ega bo'lganlar.

Xulosa. Demak, pedagogik nuqtai nazardan yondoshganda ta'lim oluvchilar o'qib o'ranish faoliyati bilan shug'ullanganda ularning dunyoqarashida keskin o'zgarishlar vujudga keladi. Buning natijasida amaliy faoliyatlari rivojlanadi. Bunday pedagogik ta'limot Sharq allomalari faoliyatini asosini tashkil qilgan. Madrasalarda mudarrislar ta'lim oluvchilarning bilimlarni chuqur o'zlashtirib, ezgulik yo'lida sarflashlarini uqtirganlar. Shuning uchun ham ajdodlarimiz dunyoqarashining asosini bunyodkorlik g'oyasi tashkil etgan. Ta'lim oluvchilarda ijtimoiy faoliyatlari uchun zarur bo'lgan amaliy ko'nikmalarni egallagach, yangidan yangi bilimlarni o'zlashtirish va uni ezgu maqsadlarda qo'llash motivatsiyasini hosil qilganlar. Ezgu maqsadlarni vujudga kelishi esa shaxsni bunyodkorlikka undovchi ko'plab yangi g'oyalarni tug'ilishiga asos bo'ladi. Ma'lumki puxta egallangan bilimlar shaxsni faollikga chaqiradi.

Pozitiv dunyoqarashni shakllanganligini anglatuvchi o'ziga hos elementlari mavjud. Xususan;

- Odobsizliklar oldida o'z odobini ko'rsata bilishi;
- Qiyin vaziyatlarda sabr-toqatli bo'lishi;
- Muammolarni hal qilishda tabbsumli harakat qilish;
- Asabiylashganda aqlni ushlay olish, tinchlanish;

- Ezgulikni doimo ichki olamida his qilish;
- Yaqinlariga nisbatan muhabbatli bo'lish
- Qadr qimmat tushunchalarini anglay olishi;
- Irodali bo'lishi;
- O'z sog'ligini asray olishi va boshqalar sog'ligini qayg'urishi
- Erkinlikni qadriga yetish va intizomni saqlay olishi;
- Din va axloq tushunchalarini tahlil qila olishi;
- Taraqqiyot va fan haqidagi qarashlarini rivojlantirib borishi;
- Adolatlilik, halollik, haqgo'ylik, samimiylilik, uyatchanlik, vijdonli bo'lish, nomusni asrash kabi tushunchalarni anglashi o'z hayotida qo'llashi va shu tushunchalar ila tarbiyalanganligi
- Do'slikni qadrlay olishi, yaxshi do'st bo'lishi;
- Tanqidni to'g'ri tushinishi, kamchiliklarni tan olishi va yaxshi tomon uchun harakat qilishi kabi elementlar pozitiv dunyoqarashni shakllanganli belgisi hisoblanadi.

Pozitiv dunyoqarash katta bir tizimdir bu tizimning shakllanish asosida allomalarimizning meroslari turadi. Asosiy elementlari esa manashu merosdan ilm o'rgangan holda hayotda shu elementlar asosida yashay olishidir. Yuqorida sanagan elementlarimizni hammasini bola tug'ilganidan darhol shakllantirib bo'lmaydi. Bu jarayon uzoq muddatli va keng targ'ib qilinadigan jarayon hisoblanadi. Bolaligida uchquni paydo qilingan sifatlar oliy ta'limga kirib borishi bilan yana mustahkam shakllantiriladi ilmiy asoslangan holda, ko'nikmalar va malakalar bilan. Shuning uchun ham biz tadqiqot ishimizning mavzusida talabalarda pozitiv dunyoqarashni shakllantirish deganda bu elementlar talaba obrazida ham bo'lishi aniq ekanligini ta'kidlamoqchimiz. Negaki har bir ota-ona pozitiv dunyoqarashni shakllantirishning barcha elementlarini to'liq qamrab ololmaydi. Talaba ta'lim muaassalarida bu elementlarni fan, adabiyotlar asosida shakllantirib boradi. Umuman olganda har bir yosh davrida bolalikmi, yetuklikmi, qarilikmi hammasida biz ezguliklar asosoda yashashga intilamiz, tarbiyalanamiz, yoshimizga most xulosalarni yaratamiz. Shunday ekan pozitiv dunyoqarashni har bir yoshning muammosidan, muhitidan kelib chiqqan shakllantirish tizimi mavjud.

Bunyodkorlikka asoslangan bunday faoliyat natijasida shaxsni rivojlantiruvchi ideal modellar shakllanadi. Inson har doim bunyodkorlikka, ezgu amallarni bajarishga yo'naltirilgan ijtimoiy pedagogik jarayonining faol ishtirokchisi sifatida namoyon bo'ladi. Insonning asosiy faoliyati o'zini o'rab turgan muhitdagi voqea-xodisalarning mohiyatini anglashga yo'naltiriladi.

References:

1. Амбаров А. «История происхождения узбекского народа». –Т.: IPTD “Uzbekistan”, 2018. – 664 с.
2. Bobobxonov A. “O'zbekistonda pedagogik fikr taraqqiyototi tarixidan” –Т.: O'qituvchi, 1967. – 119 b.
3. Bobomurod Ahmdjon Xoji. “Barkamol insonlar yo'lidan”. – Т.: Movarounnahr, 2003. – 150 b.
4. George Sarton. Introduction to the history of Science (1.From Homer to Omar Khayyam), Williams &Wilkins Company 1962. – 528 p.
5. Гордлевский В.А. «Избранные сочин» Том 4. «Этнография. История востоковедения». Ресензи. – М.: Наука, 1968. – 615 с.